O‘ZBEKISTON XALQ XO‘JALIGINING URUSHGA TO‘LIQ SAFARBAR ETILISHI.

Kendjayev Yakub Yusupovich
Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Osiyo texnologiyalar universiteti
yakubkendjayev8@gmail.com

Tadqiqotlardan ma’lumki fashistlar Germaniyasi 1941-yil yozida, 22-iyun yakshanba kuni tongotardida hujum qilmaslik to‘g‘risidagi 1939-yil 23-avgustdagi shartnoma shartlarini buzib, Sovet Ittifoqi hududiga bostirib kirdi. SSSR xalqlari, shu jumladan, O‘zbekiston xalqlari uchun ham og‘ir-sinovli davr, ya’ni, ularning nemis-fashist bosqinchilariga qarshi kurashi davri boshlandi. Gitlerchilarning Sharqqa doir harbiy muddaolarini o‘zida gavdalantirgan “Barbarossa” rejasiga “yashin tezligidagi urush” g‘oyasi asos bo‘lgan edi. Sovet Ittifoqini oz fursat ichida, qisqa muddatli kompaniya jarayonida mag‘lub qilish va urushni 1941-yil kuzida tamomlash rejalashtirilgan edi.

Sovet davlati hududiga ko‘chgan ikkinchi jahon urushi SSSRda yashab turgan barcha millat va elat vakillarining xalq xo‘jaligini rivojlantirish yo‘lidagi tinch mehnatini, kapital mablag‘laridan foydalanishdagi xohish-istaklarini, sanoat ishlab chiqarishi tarmoqlarini rivojlantirishdagi urinishlarini, sanoat tuzilishi sohasidagi oldinga intilishlarni o‘zgartirib yubordi.

Urush mamlakat iqtisodiyoti oldiga g‘oyat murakkab vazifalarni qo‘ydi va xalq xo‘jaligini tubdan qayta qurib, urush sharoitiga moslashtirish talab qilindi. Butun mamlakatning front orqasidagi barcha rayonlarida bo‘lganidek, O‘zbekistonda ham urush yillarida takror ishlab chiqarishning o‘ziga xos xususiyati evakuatsiya qilingan korxonalarni tezda joylashtirib, ishga tushirib yuborishga erishish va ishlab turgan korxonalarni mamlakat mudofaasi uchun zarur bo‘lgan mahsulot ishlab chiqaradigan qilib qayta qurishdan iborat edi.

Boshlangan urush davlat hayotining barcha jabhalarida o‘zgarishlar qilishni, shiddatli mudofaa uchun kuch-g‘ayrat sarflashni talab etardi. Yuqori hokimiyat eshelonida esa, sarosimalik ko‘zga tashlanardi. Faqat 1941-yil 29-iyundagina VKP(b) MK va SSSR Xalq Komissarlari Soveti nomidan joylarga ko‘rsatmalar jo‘natilib, unda urush ahvolni keskin o‘zgartirib yuborganligi, Vatan jiddiy havf ostida qolganligi, barcha ishlarni harbiy izga solish uchun tez va qat’iy ravishda qayta qurishni amalga oshirish zarurligi ko‘rsatib o‘tilgan edi. Mamlakat hayotini qayta qurish, butun iqtisodiyotni favqulodda harbiy holatga o‘tkazib, safarbarlikni kuchaytirishni talab etardi. Hujjatlarning asosiy talabi “Hamma narsa front uchun, hamma narsa g‘alaba uchun!” degan chaqiriqlar o‘z ifodasini topgan edi.

1941-yil 30-iyunda I.V. Stalin rahbarligida Davlat Mudofaa Qo‘mitasi (DMQ) tashkil etildi. DMQ boshqaruvida, harbiy va partiyaviy hokimiyat to‘plangan edi. Boshlangan urush sharoitida sovet qurolli kuchlariga strategik rahbarlikni amalga oshiruvchi favqulodda organ sifatida Stalin boshliq Oliy Bosh Qo‘mondon Qarorgohi tashkil etildi. 1941-yil 8-avgustda Stalin Oliy Bosh Qo‘mondon lavozimini qabul qildi. Barcha muhim harbiy-siyosiy qarorlarni qabul qilish haqiqatda uing qo‘lida to‘plangan edi, bu qarorlar DMQ buyruqlari yoki VKP (b) MK Siyosiy byurosining qarorlari sifatida rasmiylashtirilardi. Stalinning faqat yirik masalalardagina emas, balki mayda-chuyda masalalarni ham hal qilishga urinishi ko‘plab rahbarlarning tashabbusini bo‘g‘ib qo‘ygan edi. Faqat 1941-yil 3-iyuldagina Stalin xalqqa murojaat qilishga qaror qildi. U o‘zining radio orqali so‘zlagan nutqida haqiqiy ahvolni aytishga majbur bo‘lgan edi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

1941-yil 30-iyunda qabul qilingan "1941-yil uchinchi choragida xalq xo'jaligini umumiy safarbar etish rejasi" asosida mamlakatda tinchlik davriga nisbatan qurol-aslaha ishlab chiqarishni 26 foizga ko'paytirish belgilandi.Temir yo'llarda harbiy yuklar, ko'mir, yonilg'i, metall va don mahsulotlari yetkazilishi tashqaridagi boshqa yuklarni tashish hajmi qisqartirildi. Rejada boshqa chora-tadbirlar ham belgilangan bo'lib, biroq keyingi voqealar rivoji ko'rilgan tadbirlarning yetarli emasligini ko'rsatib qo'ydi. Og'ir urush davrida rivojlanayotgan sanoatni ishchi kuchi bilan ta'minlash vazifasi ayniqsa keskin bo'lib turdi. Ko'p minglab tajribali ishchilarning frontga ketishi natijasida vujudga kelgan juda katta yetishmovchilik sanoat korxonalariga yangi kelgan va tajribaga, mehnat malakasiga ega bo'lmaganlarni g'oyat qisqa muddat ichida turli ishlab chiqarish kasblariga o'rgatish va o'qitish yo'li bilan to'ldirib borildi. Shuningdek, O'zSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1942-yil 13-fevraldagi[1] Farmoni bilan urush davrida ishlamayotgan mehnatga layoqatli aholi xotin-qizlar, o'smirlar, nafaqaxo'rlarni safarbar qilish hisobiga ham ishchilar safi kengayib bordi.

Yuqorida ishlab chiqilgan rejalar markazlashgan nuqtai nazardan tuzilgan bo'lib, O'zbekistonning real iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olmagan holda ishlab chiqilgan edi. Shuning uchun ham ba'zi sanoat sohalarini hisobga olmaganda, bu reja bajarilmadi. Ishlab chiqarishning ko'pgina sohalarida 1942-yil o'sish rejalari bajarilmadi, aksincha 1941-yil darajasiga ham yeta olmadi. Bu holatni harbiy ishlab chiqarishga bog'liq bo'lmagan deyarli barcha sanoat sohalarida kuzatish mumkin. O'zbekistonda ishlab chiqarilgan yalpi sanoat hajmi (itttifoq tasarufidagi sanoat tarmoqlaridan tashqari) 1941-yilda 1291, mln. rubl bo'lgan bo'lsa, 1942-yilga kelib bu ko'rsatkich 931,9 mln. rublni tashkil etdi[2].

Ayniqsa, bu pasayish og'ir sanoat bilan bog'liq bo'lmagan sanoat sohalarida yaqqol namoyon bo'ldi. Jumladan, O'zbekiston SSR Tekstil sanoati Xalq Komissarligiga qarashli tarmoqda sanoat hajmi 1941-yilda 686,6 mln. rubldan 1942-yilda 441,9 mln. rublga tushib qoldi. Shuningdek, ko'rsatilgan davr oralig'ida O'zbekiston SSR Yengil sanoat Xalq Komissarligida yalpi sanoat mahsulotning hajmi 148 mln. rubldan 102,1 mln. rublga, O'zbekiston SSR Oziq-ovqat Xalq Komissarligida 319,7 mln. rubldan 222,9 mln. rublga kamaydi[3]. Bunday pasayishlar avvalo xalq xo'jaligini qayta qurish, harbiy izga ko'chirish oqibatida, ushbu sanoat sohalari ishlab chiqarish quvvatining harbiy mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilishi, hamda bu tarmoqlarni xom ashyo bilan ta'minlovchi qishloq xo'jaligidagi muammolar bilan izohlash mumkin.

Ko'rinib turibdiki harbiy sanoat iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga tegishli korxonalar hisobiga mustahkamlandi. Tinchlik davrida fuqarolik iste'moliga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalar harbiy mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirildi.

Shu sababli, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish pasayganiga qaramay, harbiy mahsulotlar ishlab chiqarish oshgan. Barcha xom ashyo va moddiy resurslar ishlab chiqarish quvvatlari harbiy sanoat ehtiyojlariga yo'naltirildi. Urush yillarida O'zbekiston xalqi va xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga ulkan hissa qo'shdi. O'zbekiston kabi front orti respublikalariga frontni asosiy qurol-yarog', texnika, kiyim-kechak, oziq-ovqat va boshqa mahsulotlar bilan ta'minlash vazifasi yuklandi.

To'g'ri urushning dastlabki yillarida mamlakat xalq xo'jaligini qayta qurish, uni harbiy izga o'tkazish jarayoni og'ir kechdi. Front ehtiyojlariga mos ravishda moddiy, moliyaviy va mehnat resurslarini qayta taqsimlash, harbiy mahsulotlar ishlab chiqarish darajasini tezkor ko'paytirish va

[1] Изменение классовой структуры общества в Узбекистане за годы советской власти. Т., 1984. С. 80
[2] Ўз МА, Р-837-фонд, 32-рўйхат, 3318-иш, 12-варақ.
[3] Ўз МА, Р-837-фонд, 32-рўйхат, 3318-иш, 12-варақ орқаси.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

kundalik mahsulotlar ishlab chiqarishni kamaytirish, ishlab chiqarish hajmini g'arbdan sharqqa ko'chirish, uni mamlakat ichkarisidagi tumanlarda tezlik bilan ishga tushirish zarur edi. Bularni hammasini haddan tashqari qisqa muddatlarda amalga oshirish lozim bo'lar edi[4].

Urushning borishi mamlakat ichkarisidagi ishlarning to'g'ri yo'lga qo'yilishiga ham bog'liq edi. Shuning uchun ham SSSRning o'sha davrdagi siyosiy rahbariyati iqtisodiyotni urush sharoitidan kelib chiqqan holda qayta qurishga alohida ahamiyat berdi. Qayta qurish sovet Rossiyasidagi grajdanlar urushi yillarida sinovdan o'tgan harbiy-kommunistik usullarda amalga oshirildi. Ikkinchi jahon urushining sovet davlati foydasiga borishi mamlakat ichkarisidagi ishlarning qay darajada tashkillanishiga bog'liq edi. Shu boisdan SSSRning siyosiy rahbariyat mamlakat iqtisodiyotini to'liq harbiy izga ko'chirish, qayta qurish ishlarini harbiy kommunistik usullar bilan amalga oshirildi.

1941-yil 26-iyundagi SSSR Oliy Soveti Prezidiumining "Ishchi va xizmatchilarning ish soatlari rejimi haqida"gi farmoyishidan so'ng mamlakatda ishchilar va xizmatchilar uchun ishdan tashqari vaqtda majburiy ishlab berish joriy etildi. Katta yoshdagilar uchun ish kuni olti kunlik ish haftasida 11 soatgacha uzaytirildi. Haqiqatda esa 12-14 soatga qadar davom etar edi. Mehnat ta'tiliga chiqishlar bekor qilindi. Bu hol ishchi-xizmatchilar sonini ko'paytirmasdan turib ishlab chiqarish quvvatlari hajmini taxminan 35 %ga oshirishga imkon bergan edi[5].

Nijniy Tagildagi Ural o'g'ir sanoatda Markaziy Osiyo erkaklarining guruh birdamligining gorizontal rishtalari mustahkamlandi. Ular alohida yotoqxonalarda va kazarmalarda yashab, birga ishladilar va ko'pincha alohida stol va bufetlarda ovqatlanishdi, shuning uchun ularni armiyada sodir bo'lgan integratsiyaning asosiy joylaridan mahrum qilishdi. Natijada esa bu erda umumiy ovqatlanish ko'pincha madaniy masofalarni buzish uchun birinchi qadam bo'ldi. Ko'p millatli armiya bo'linmalaridan farqli o'laroq, Uraldagi segregatsiya odatda bir tomondan ruslar va slavanlar, ikkinchi tomondan esa Markaziy osiyoliklar o'rtasida ikki qutbga bo'linishga olib keldi.Shuningdek, ular may oyida kelganidan beri ustki kiyim, shlyapa va poyabzal, shuningdek, ichki kiyim, choyshab va sovunni almashtirishdan mahrum edilar.

Biroq, ular kon do'koni faqat rus ishchilari uchun bo'lgani uchun bu vaqtlarni sotib ololmaganliklarini aytishdi. Shuningdek, ular xarid qilish imkoniyatiga ega emas edilar. Ular har kuni maksimal 2 rubl 80 tiyin olishdi, garchi kunlik ovqatlanish kamida 3 rubl bo'lsa ham. Ular yuk tashish minimumini bajara olmadilar, chunki rahbariyat ularni vagonlar bilan ta'minlamagani uchun ularni elementlarda kuniga 5-6 soat bo'sh turishga majbur qildi va kasallikka moyil bo'lishiga qaramay, rus tibbiyot xodimlari ularga yordam berishdan bosh tortdilar va ularni "kasallikdan o'lishga mahkum" qoldirib, kazarma taxtalarida o'tirdilar.

Ular haddan tashqari to'lib-toshgan, gigiyena yo'qligi, dori-darmonlar, issiq kiyim va etarli oziq-ovqat etishmasligi - "qo'rqinchli yashash sharoitlari" ga duch keldi. O'lim holatlari muntazam bo'lib turdi va jasadlar bir necha kun davomida kazarmadan olib chiqilmaydi, bu esa kasallikni yanada kuchaytirdi.1943-yil fevral oyida Magnitogorsk metallurgiya kombinatida O'rta Osiyo ishchilari tibbiy ko'rikdan o'tdilar, ularning 23 foizi distrofiya, 8 foizi esa distrofiyadan oldingi kasallik ekanligini aniqladi. Ural turbzavodida darhol uyiga yuborilmaganlar "kiyim va poyabzal bilan to'liq jihozlanmagan va faqat xalat va shippak kiygan. Ichki kiyim yo'q". 1943 yilning may oyida Ivanovo viloyatidagi 1111 nafar o'zbek mehnatkashlarining 40 foizi tropik bezgakdan aziyat chekayotgani, ularning 16 nafari halok bo'lgan.

---

[4] Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Иккинчи китоб 1939-1991 йиллар. –Тошкент: Akademnashr, 2019. –Б. 29.

[5] ЎзР ПАА, 58-фонд, 20-рўйҳат, 1245-иш, 78-варақ.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Zavod muhandis bo‘lgan Iosif Mixaylovich Tsukernik (1912-2003) Nijniy Tagildagi Ural og‘ir mashinasozlik zavodidan misol keltiradi (Uralskiy zavodi Tiazhelogo Mashinostroyeniia yoki UZTM) 1943-yilda Tamara Xonim o‘zining konserti beradi. U o‘zbek erkaklarining ustlariga chopon kiygan ko‘kraklari ochiq holda, yomg‘ir ostida ishlayotganini, notanish oshxonaga moslasha olmaganini esladi. U qish kelganda jasadlarni ko‘mish qiyin bo‘lganini ham esladi. Yurtimizdan borgan Mehnat armiyasidagilar mislsiz og‘ir sharoitda hayot kechirganlar[6].

Islomiy e’tiqod Markaziy osiyoliklarning milliy o‘ziga xosligini ham mustahkamladi, ishchilar o‘liklarini islom an’analariga ko‘ra (toz choyshab kerak bo‘lgan) dafn qilishni taqiqlovchi ma’murlar bilan bir necha marta to‘qnash kelishgan, dafn etish uchun kafanlik ma’muriyat tomonidan berilmagan holatlar ko‘p bo‘lgan.

Ular orasida o‘lim darajasi yuqori bo‘lgan. To‘yib ovqatlanmaslik, og‘ir jismoniy mehnat, nochor yotish-turish, horg‘inlik kabi azoblarga duchor bo‘ishgan

Erkaklar frontga ketishi natijasida ishlab chiqarish korxonalariga ayollar oqimi ko‘paydi. Masalan, 1941-yilning ikkinchi yarmida Namangan viloyatidagi korxonalarda 230 nafar ayol turli kasblarni o‘rganib, ulardan 28 nafari slesar, 18 nafari tokar, 18 nafari elektromantyor, 25 nafari shofyor va boshqa “erkaklar kasbi”ni o‘zlashtirdilar[7]. Aloqa yo‘llari xalq komissariyaatining 1941-yil oktabrdagi “Xotin-qizlar orasida temir yo‘l mutaxassislarini tayyorlash va mehnat ko‘nikmalarini oshirish to‘g‘risida”gi farmoyishi ijrosi sifatida 1942-yil oxiriga kelib O‘zbekiston temir yo‘llarida 8 599 nafar ayol ishlagan. Birgina Samarqand temir yo‘l stansiyalari va agregatlarida 1942-yil boshlarida 127 nafar xotin qiz xizmat qilib, shulardan 20 tasi slesar, 10 tasi mashinist yordamchisi, 3 tasi poyezd o‘t yoquvchisi (kochegar) vazifasini bajargan[8]. Ikkinchi jahon urushi yillarida, hatto shaxtyorlik kasbiga ham ayollar jalb qilindi. Umuman olganda, bu davrda O‘zbekiston ishlab chiqarish sanoatida ayollar hal qiluvchi kuchga aylandi.

[6] Ўз МА, Р-837-фонд, 1-рўйҳат, 3260-иш. 358-359-варақлар.
[7] Узбекская ССР в годы Великой Отечественной войны. Том 1. –С. 128.
[8] История Самарканда. –Ташкент: Фан, 1970. Том 2. –С.25.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.